



## MILLIY TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA “TURIZM MARSHRUTI” TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA TA'RIFI

**Tursunova Gulmira Rabbonovna**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*Turizm kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi*

doi [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a40](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a40)

**Annotatsiya.** Maqolada milliy turizm xizmatlar bozorida «turizm marshruti» tushunchasining mohiyati va muallif ta'rifi hamda shu mavzu bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan xorijiy va mahalliy olimlarning bergan ta'riflari ko'rib chiqilgan. «Turizm marshruti» tushunchasiga ilmiy yangilik sifatida muallif tomonidan berilgan ta'rif keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy turizm xizmatlar bozori, turizm marshruti, madaniy meros obyektlari, tur, turpaket, marshrutning boshlanish nuqtasi, marshrutning tugallanish nuqtasi.

## СУТЬ ПОНЯТИЯ «ТУРИСТИЧЕСКИЙ МАРШРУТ» НА НАЦИОНАЛЬНОМ РЫНКЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ

**Турсунова Гулмира Раббоновна**

*- и.о.доцента кафедры Туризма*

*Самаркандского института экономики и сервиса*

**Аннотация:** В статье рассмотрена сущность понятия «туристский маршрут» на рынке национальных туристических услуг и определения, данные зарубежными и отечественными учеными, проводившими исследования по данной теме. Представлено определение, данное автором понятия «Туристический маршрут» как научной инновации.

**Ключевые слова:** национальный рынок туристических услуг, туристический маршрут, объекты культурного наследия, тур, турпакет, начальная точка маршрута, конечная точка маршрута.

## THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF “TOURIST ROUTE” IN THE NATIONAL MARKET OF TOURIST SERVICES

**Tursunova Gulmira Rabbonovna**

*acting assistant professor, Department of Tourism,*

*Samarkand Institute of Economics and Service*

**Abstract:** The article examines the essence of the concept of “tourist route” in the market of national tourism services and the definitions given by foreign and domestic scientists who have conducted research on this topic. The definition given by the author of the concept “Tourist route” as a scientific innovation is presented.

**Key words:** national market for tourism services, tourist route, cultural heritage sites, tour, tour package, starting point of the route, ending point of the route.

**Kirish.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” nomli kitobida: «Turizm – O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri», – deb ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra: “O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti – samarali ishlab chiqarish bilan birga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojiga asoslangan iqtisodiyot bo'lmog'i lozim. Bu muhim vazifa turizmni rivojlantirish, O'zbekistonni jahon turizmining jozibali markaziga aylantirish, yurtimizni sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlar qatoriga kiritishni ko'zda tutadi”.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish,

sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz.

Turistik industriyadagi xizmatlarga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, “low cost” aviaqatnovini yo'lga qo'yish, soha uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalar ham diqqat markazimizda bo'ladi.

Zero, bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida turizm iqtisodiyotning strategik

tarmog'iga, uning o'ziga xos drayveriga aylanib ulgurgan. Turizmning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi o'rni muttasil oshib bormoqda. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini jadal-lashtirishga intilayotgan Yangi O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri bo'lmog'i lozim.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda quyidagilar turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik vazifalar sifatida belgilandi:

- ❖ turizm tarmog'ini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;

- ❖ turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

- ❖ xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- ❖ yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish.

Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri - yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga yetkazishdan iborat.

Ma'lumki, qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020-yilda O'zbekistonni sayohatga borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritdi. Biz bunday imkoniyatdan unumli foydalanishimiz kerak. Katta salohiyatga ega bo'lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur.

YUNESKONing Umumjahon moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga O'zbekistondagi yangi obyektlarni kiritishni tezlashtirish lozim.

Yangi zamonaviy mehmonxonalarini qurishga davlat budjetidan zarur subsidiyalar ajratib, turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish zarur.

Turizm infratuzilmasidagi mavjud muam-molarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar si-fatini oshirish va bozorlarda milliy turizm mahsu-lotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar sama-radorligini oshirish hamda respublikaga kirib ke-layotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'pay-tirish maqsadida, kelajakda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish belgilab olindi:

- ❖ turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni joriy etish;

- ❖ turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hu-dudlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infra-tuzilmani rivojlantirish;

- ❖ transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo'nalishlarni kengaytirish, trans-port xizmatlari sifatini oshirish;

- ❖ turizm bozorining turli qatlamlariga mo'ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta'sirini kamaytirish;

- ❖ respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish;

- ❖ O'zbekiston Respublikasi turistik mahs-ulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini mustahkamlash;

- ❖ quyidagilarni nazarda tutgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko'r-satuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malaka-sini oshirish tizimini takomillashtirish.

Shuningdek, yaqin kelajakda bu jabhadagi choralar sifatida O'zbekistonni jozibali jahon tu-rizmi markaziga aylantirish, izchillik bilan yurti-mizni dunyoning 30 ta sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlari qatoriga kiritish masala-lariga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Mamlakat bo'ylab WI-FI hududlar sonini oshirish, biotualetlar tarmog'ini tashkil etish, ija-raga avtomobil xizmatini yo'lga qo'yish (Rent a kar), turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hu-dudlarni yaratish, sohaning yangi istiqbolli tur-larini jadal rivojlantirish ishlarini davom ettirish zarur.

Turizm klasteri, turistik zonalar, turistik industriyadagi xizmatlarni tashkil etishda tadbir-korlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash vazifalari ham dolzarbligicha qolmoqda [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbe-kiston bo'ylab turistik hududlar uchun turli xildagi va mavzudagi turmarshrutlarni yaratish masalalari ko'proq amaliyotda bajarilsa-da, lekin mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izla-nish va tadqiqotlar o'tkazilishi davomida ko'plab adabiyotlar tahlilida o'rganildi. Jumladan, olim-lardan: A.P.Durovich, A.N.Dunes, A.S.Kuskov, O.Yu.Gracheva, Y.A.Markova, L.A.Mishina, Y.V.Mishunina, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, D.Usmanova, R.Xaitboyev, Z.O.Raximov, N.E.Ibadullayev va boshqalar tomonidan olib be-rilgan tadqiqotlari tahlil qilindi hamda o'rganildi.

Xizmatlar yetkazib beruvchi korxonalar xodimlari, ayniqsa, turoperator va turagentlar jozibador turlarni yaratishda turistik hudud yoki

mintaqa, turistlar tashrif buyuradigan joylar va obyektlarga boradigan turistik marshrut bilan bog'liq ekanligini inobatga olgan holda uning mazmun va mohiyatini ochib berish mazkur tadqiqot ishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu masalalarga bag'ishlangan xorij va mamlakatimiz olimlarining turizm sohasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari hamda o'quv adabiyotlarida keltirilgan «turizm marshruti» tushunchasiga turli xildagi yondashuvlar mavjudligi uni keng sharhlab berish bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki tadqiqotchi olimlarning yondashuvlaridan kelib chiqqan holda ushbu tushunchaga ta'rif berishga harakat qilishlari har xil ta'riflar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish va maqsadga erishish uchun mavjud ta'riflar doirasida yakuniy natijalar bilan farqlanuvchi bir qator nuqtayi nazarlarga e'tibor qaratib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda xorij olimlarining turistik marshrutga bergan ta'riflarini keltirib o'tish lozim. Shunday olimlardan biri M.B.Birjakovaning so'zlariga ko'ra: «Turistik marshrut – geografik jihatdan aniqlangan, ma'lum bir hududga va maxsus obyektlarga bog'langan va turli darajadagi tafsilotlar bilan tavsiflangan, yurish, sayohat marshruti», – deb ta'riflangan [4].

Jon Urrining fikriga ko'ra, sayohat marshrutlari «odamlarni, obyektlarni va joylarni turli makon va vaqtlar bo'ylab bog'laydigan murakkab amaliyotdir» [7].

Mamlakatimiz olimlaridan biri Z.O.Raximov: «Turistik marshrutlar turizmni rivojlantirishning asoslaridan hisoblanishi turistning yoki turistlarning o'z xohishlari bilan ma'lum bir davlatdagi turistik obyektga yoki obyektlarni ko'rishga kelganligi va uni ko'rib ketishda, albatta, turistik marshrutdan foydalanilganligi tushuniladi. Turistlar foydalaniladigan marshrut esa oldindan ishlab chiqilgan, turistik marshrutning xizmatlar ko'rsatish dasturlari ishlab chiqilgan bo'lishi kerak», – deb ta'riflaydi [9].

R.Xaitboyevning fikricha esa «turistik marshrut qayd qilingan, kutilmagan «takliflar»ning bajarilishi yoki «xizmatlar» majmuasi a'lo darajada kafolatlanishi uchun ham turistik marshrutlar deyiladi. Turistlarning barcha ehtiyojlarini, talablarini bajarishda foydalanadigan yo'llar turistik yo'llar deyiladi» [8].

V.S.Senin: «Marshrut – barcha geografik nuqtalar va joylar ro'yxati bilan ko'rsatilgan, turistlarning marshrutdagi to'xtashlar (turishlar) oralig'ida harakatlanishi uchun foydalanadigan transport turlarini ko'rsatadigan yo'li», – degan fikrni ilgari suradi [10].

A.S.Kuskov, Y.A.Djaladyan tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra, «turistik marshrutda turist tomonidan to'xtash nuqtalari (turishlar) tur davrida harakatlanish uchun marshrutning boshlanish va tugash nuqtalari hisoblanadi». Unga ko'ra, marshrutning boshlang'ich va tugash nuqtalari sayohatning boshlang'ich va tugash nuqtalari bo'ladi. Shartnomada ko'rsatilgan turistga birinchi turistik xizmat ko'rsatiladigan joyi marshrutning boshlanishi va oxirgi turistik xizmat ko'rsatiladigan joy marshrutning tugashi deb ta'riflash mumkin [6].

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2019-yil 18-iyulda tasdiqlangan O'RQ-549-sonli «Turizm to'g'risida»gi qonunida turistik marshrut bevosita turistik yo'nalish deb nomlanib, unga ko'ra, «turistik yo'nalish – sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro'yxati bo'yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo'li» deb ta'riflangan [1].

N.M.Biritskaya va T.M.Sergeyeva tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra, «turistik marshrut (fransuzcha «harakat», «oldinga siljish» yoki «yo'l») – turistlarga dasturda ko'zda tutilgan xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida ma'lum vaqt davomida harakatlanishi uchun oldindan rejalashtirilgan marshrut. Bu turning ajralmas qismi bo'lib, sayohat doirasida turistlarning ma'lum bir yo'nalishdagi harakatini geografik jihatdan belgilaydi» [5].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda turistik marshrut tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi quyidagi nazariy holatlarni keltirib o'tamiz:

– turistik marshrut dasturda ko'zda tutilgan xizmatlar va qo'shimcha turistik-ekskursiya xizmatlarini olish uchun turistlarning ma'lum vaqt oralig'ida harakatlanishi uchun oldindan rejalashtirilgan marshrut sifatida belgilanadi;

– turistik marshrutlar turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlaridan biridir. Turistik firmalar marshrutlarni, shu jumladan, ulardagi ma'lum bir xizmatlarni, ya'ni turpaketni oldindan ishlab chiqadi. Turpaketda esa o'sha xizmatlar aks etadi (ovqatlanirish, joylashtirish, ekskursiya, dam olish va h.k.).

Amalga oshirilgan tahrir nazariy va amaliy jihatdan «turistik marshrut» tushunchasining mohiyati qanchalik ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, barcha ko'rib chiqilgan turistik marshrutning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tavsiflar o'zaro chambarchas bog'langanligi va bu tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini aniqlashda esa ularni bir butunligicha aks ettirishni taqozo qiladi.

Bundan kelib chiqqan holda turizm sohasida muhimligini inobatga olib, "turistik marshrut" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Turistik marshrut deb, turistning turistik dasturda ko'rsatilgan ketma-ket tashrif buyuradigan barcha geografik nuqtalari, turistik hududlari, destinatsiyalari va turistik majmualariga piyoda yoki turli xildagi transport vositalari turlaridan foydalangan holda bosib o'tadigan yo'lga aytiladi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha xulosa qilinadigan bo'lsa, taklif qilinayotgan ta'rif boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan keltirilgan ta'riflarni umumlashtirish va to'ldirishga, shu bilan birgalikda, turistik marshrut tushunchasining mohiyatini yanada to'laroq, aniqroq va tushunarli talqin qilinishiga imkon beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotlarimiz natijasida turizm sohasida yangi turdagi va mavzudagi turistik marshrutlarni ishlab chiqish tamoyillari va masalari o'rganilgan bo'lib, shu bilan birga, turistik marshrutlarni ishlab chiqish tamoyillari va turlari bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotni olib borish jarayonida ilmiy abstrakt fikrlash, mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Turizm sohasini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda, turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda «turizm marshrutlari» va «turistik mahsulot»ga bo'lgan talab shakllanadi.

**Turistik marshrutlar** har qanday davlat, har qanday hudud va tabiiy-madaniy mintaqada turizm sohasini rivojlantirishning asoslaridan biri bo'lib, turist uchun eng birinchilardan dam olish, tunash, ovqatlantirish va sayohat qilish joyini aniqlash hisoblanadi. Demak, ularning sayohat qilishlaridan asosiy maqsad ma'lum bir hududda joylashgan turistik resurs va obyektlarni talab darajasida, ya'ni iste'molga yaroqli tarzda tashkil qilish lozim bo'ladi.

Bir hududdan ikkinchi bir hududga tashrif buyurgan har qanday turist sayohat qilishi davomida, hech bo'lmaganda, 24 soatdan ortiq vaqt ichida qolishni istaydi. Bunday paytda esa ularga, albatta, tunash joyi, ovqatlantirish maskani, transport vositasi, dam olish va ko'ngilochar joylar va xizmatlarning tashkil qilinishi maqsadga muvofiq. Bu xizmatlarni turistik firma xodimlari belgilangan dastur yoki oldindan sotib olingan turistik paket asosida taklif qiladi. Bu taklifni biz boshqacha qilib turistik marshrut yoki turmarshrut asosida «tashkil qilingan tur» deb aytamiz.

Turistik marshrutlar turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri sifatida ichki yoki xalqaro

ro turistlarning o'z xohishi bilan ma'lum bir davlatdagi turistik obyekt yoki ziyoratgohlarni ko'rishga kelishi va ma'lum yo'nalishdagi turistik marshrutdan foydalanish bilan izohlanadi. Turistlar foydalanadigan marshrut esa oldindan yaratilgan, ya'ni turistik marshrutning xizmat ko'rsatish dasturi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Har bir turistik obyektga turistlarning kirishiga ruxsat berilganidan so'ng, bu obyekt turizmga xizmat qilishni boshlaydi. Ba'zida turizm uchun foydalanishga ruxsat berilgan obyektlarga turistik marshrutning yo'qligi sababli ushbu obyektlar turizm uchun xizmat qilmaydi. Masalan, Amir Temir g'ori dunyoga mashhur g'orlardan hisoblanadi. Bu g'ordan ichki turizm ham, xalqaro turizm ham foydalanishga ruxsat berilgan. Lekin g'orga yetib borish, uning landshafidan foydalanish maqsadida u hududga tashrif buyurish uchun turistik marshrutlar ishlab chiqilmaganligi sababli hozirda bu g'or turizm uchun xizmat qilmaydi [8].

Turistik marshrut, birinchi navbatda, turistik resurslarni o'rganishni talab qiladi. Endi respublikamizdagi tabiiy resurslar salohiyatiga kel-sak, turizm resurslari zaxirasi va turli-tumanligi bo'yicha O'zbekiston jahondagi eng boy davlatlar qatorida turadi. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan. Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi obyektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak [3].

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2022-yilda bergan ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston davlat muhofazasida 8210 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, shundan 4748 ta arxeologik yodgorliklar, 2265 ta me'moriy obidalar, 625 ta monumental san'at asarlari, 530 ta diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar – Xiva shahridagi Ichan qal'a, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahri, Samarqand shahri hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, 9 ta tabiiy qo'riqxonalar, 10 ta buyurtmaxona va 3 ta milliy park, betakror tabiatimiz, tabiiy go'shalar, hayvonot va o'simliklar olami turizmning barcha turlarini yaxshi rivojlantirish va tashkil etishda juda katta salohiyat hisoblanadi.

2022-yilda Madaniy meros agentligi tomonidan maqsadli dasturlardan kelib chiqib, 72 ta turizm va madaniy meros obyektlarining infratuzilmasini rivojlantirish hamda ularni asrab-avaylash ishlarini amalga oshirish uchun 144 milliard

so'm mablag' ajratildi. Joriy yilning o'tgan davrida 68 ta obyektida 106,7 milliard so'mlik shartnomalar tuzilib, 79,8 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi.

55 ta madaniy meros obyektida restavratsiya ishlari boshlandi, yana 64 ta madaniy meros obyektining loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqildi – ular hozirda agentlik huzuridagi Ilmiy ekspert kengashida ko'rib chiqilmoqda. Yil davomida kengash tomonidan 638 ta loyiha hujjatlari ko'rib chiqilib, shundan 395 tasi ma'qullangan, 243 tasi rad etilgan.

2022-yil davomida 2208 ta madaniy meros obyektlarida monitoring o'tkazildi, 69 ta obyekt asl holiga keltirildi. Tashrif buyuruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ingliz, rus va boshqa tillarda 829 ta yo'l belgilari o'rnatilib, 219 ta bepul Wi-Fi zonalari tashkil etildi. Agentlik ma'lumotlariga ko'ra, respublika hududidagi 8210 ta davlat mulki bo'lgan madaniy meros obyektlaridan 1002 tasi bo'yicha ijara shartnomasi tuzilgan [11].

Ushbu turistik obyektlarda turistik oqim faqatgina turistik marshrutlar yaratilgandan keyingina ko'payadi.

Mamlakat ulkan turistik salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlar sifati va uning darajasi, shuningdek, sohani boshqarish tizimi globallashtirish va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmayotganini ko'rishimiz mumkin. Turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash hamda turizm sohasida bandlik darajasi bo'yicha jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda[2]. Respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi obyektlarini – mehmonxonalar va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlantirish obyektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'l bo'yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish kabi muhim masalalar belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda turizm jahondagi uchta yetakchi sohalar qatoriga kiritilgan bo'lib, tez sur'atlarda rivojlanishi va muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi bilan quyidagi omillarga ta'sirini ko'rsatishi mumkin:

- mahalliy daromadni oshiradi;
- yangi ish o'rinlarini yaratadi;
- turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalarni rivojlantiradi;
- sayyohlik markazlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantiradi;
- xalq hunarmandchilik markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;
- mahalliy aholi yashash darajasining o'sishini ta'minlaydi;
- valyuta tushumlari miqdorining o'sishiga yordam beradi.

Bu kabi omillar O'zbekistonda milliy turizm xizmatlar bozorining yanada takomillashuviga, turizm sohasida turli xildagi turistik xizmatlarning yaratilishiga, yangi turdagi turistik marshrutlar hamda turmahsulotlar xilma-xilligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, jozibador turlarni ishlab chiqish, albatta, yaratiladigan turistik marshrutlar xilma-xilligi, unda ko'rsatiladigan hududlar va joylarning infratuzilmasi jihatidan tayyorligi, iste'molchilarga, ya'ni turistlarning talablariga mos holda tayyorlangan turistik paketlar hamda turistik mahsulotlar assortimenti inobatga olinadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri bo'lishi bo'yicha eng muhim strategik vazifalar qatorida yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirishga ham etibor berilgani tanlangan mavzuning juda muhim, dolzarbligidan dalolat beradi.

Xususan, turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va milliy turizm xizmatlar bozorida turistik mahsulotlarni faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida kelajakdagi yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirishda ham turizm bozorining turli qatlamlariga mo'ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta'sirini kamaytirish, O'zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini mustahkamlash muhim o'rin tutadi.

***Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 2019-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2016-yil 2-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobi. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
4. Буржаков М.Б. Введение в Туризм. – СПб.: Издательский Торговый дом Герда, 2000. С. 26.
5. Бирицкая Н.М., Сергеева Т.М. Туроперейтинг. Учебно-методическое пособие. – Мн.: БГЕУ, 2010. С. 27.
6. Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма. Учебник. 4-е изд., перераб. – М.: КНОРУС, 2015. С. 126.
7. John Urry. *The Tourist Gaze second edition*, 2002.
8. Xaitbayev R. va boshqalar. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – S., 2018. 5-b.
9. Raximov Z.O., Ibadullayev N.E., Xaitboyev R. Turopereyting. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 69 b.
10. Сенин В.С. Организация международного туризма. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2014. С. 28.
11. Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti ma'lumotlari, 2023-y.